


II. SANOAT




Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 11 149,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2021 yilning tegishli davriga nisbatan 107,8 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 94,1 foizni tashkil etdi (2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 110,9 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 3,4 foizni (ishlab chiqarish indeksi 114,0 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,8 foizni (ishlab chiqarish indeksi 89,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 1,7 foizni (ishlab chiqarish indeksi 35,5 %) tashkil qildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish
(2022 yilning yanvar-dekabr)

	Mrd. so'm	2021 yil yanvar-dekabr nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	11 149,5	107,8
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	195,0	35,5
<i>ulardan:</i>		
tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	195,0	35,5
Qayta ishlash sanoati	10 486,4	110,9
<i>undan:</i>		
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 380,8	111,9
ichimliklar ishlab chiqarish	15,8	75,9
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	3 288,7	109,1
kiyim ishlab chiqarish	386,5	110,2
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	1,9	122,9
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	34,5	107,6
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	43,5	87,3
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	6,7	110,6
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	347,3	17,4
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish	0,3	14,2
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	378,7	119,3

davomi


	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar-dekabriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	11,0	103,3
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	1 640,8	98,0
metallurgiya sanoati	135,6	108,1
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	89,4	211,0
elektr uskunalarni ishlab chiqarish	459,2	94,5
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	14,0	199,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish	55,3	48,7
Mebel ishlab chiqarish	126,2	96,6
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	78,7	163,9
mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	40,8	105,9
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1950,7	161,5
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	377,3	114,0
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	90,8	89,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushini ishlab chiqaradigan sanoat korxonlari (94,1 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat korxonlari tomonidan 11 149,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 107,8 foizni tashkil etdi.



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida yuqori ulushini tashkil etgan korxonalar hissasi (foiz hisobida)




Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jizzax shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,3 foiz ulushini), Zafarobod (9,9 %) va G'allaorol (19,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)


	O'lchov birligi	2022 yil yanvar-dekabr	2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan foiz
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	150 174,5	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	45 081,6	75,3
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	19 778,3	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	9 499,3	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	1 964,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	13 584,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	256,0	-
Paxta chigiti	t	73 233,5	86,2
Momiq	t	5 154,5	112,1
Tozalangan paxta yog'i	t	8 619,3	189,3
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	99 296,5	80,0
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	735,1	55,4
Tarkibida yog' yoki hayvon yoki o'simlik mumi bo'lgan moddalarni qayta ishlashning boshqa qoldiqlari va chiqindilari	t	-	-
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	52 254,2	82,9
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	33 735,0	34,4
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 877,0	79,0
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	41 961,5	92,3

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 251,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 115,6 foizini, uning jami sanoatdagi ulushi 47,1 foizini tashkil etdi.




Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2021 yil yanvar-dekabr



2022 yil yanvar-dekabr



■ **Oziq-ovqat mahsulotlari**

■ **Nooziq-ovqat mahsulotlari**

Shu bilan birga o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘ati viloyatning bir necha tumanlarida kuzatilmoqda. Xususan, G‘allaorol (147,1 %) va Zomin (130,6 %), Forish (139,1 %) hamda Paxtakor (106,8 %) tumanlarida yuqori o‘shish kuzatilgan.


2023 yilning 1 yanvar holatiga hududlarning iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar G‘allaorol (19,1 %), Jizzax shahri (34,3 %), Paxtakor (5,9 %) va Zafarobod (9,9 %) tumanlari hisoblanadi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilish hajmining eng yuqori ulushi G‘allaorol tumaniga (148,9 %) shuningdek Forish tumaniga (154,5 %) to‘g‘ri kelmoqda.


Viloyatda oziq-ovqat iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahrida (146,5 %), Sharof Rashidov (158,3 %), Arnasoy (118,0 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlarning iste'mol tovarlaridagi ulushi
(foiz hisobida)




2022 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (20 210,4 ming so'm), Zafarobod (21 237,3 ming so'm), G'allaorol (11 740,2 ming so'm), Do'stlik (12 668,1 ming so'm) hamda Paxtakor (8 427,1 ming so'm) tumanlari o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




2022 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish




Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Mazkur dastur doirasida 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 4 736,6 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 51 339,7 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 1 033 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.





2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 446,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,9 foizni tashkil etdi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Doʻstlik (8,0 %) hamda Zafarobod (4,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




2022 yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik biznesning jami iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi Do'stlik (48,4%), Zomin (33,6%) va Zarbdor (52,1%) tumanlarida nisbatan past ko'rsatkichni qayd etgan.




2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



2023 yilning 1 yanvar holatiga viloyatda 4 080 ta faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini bo'lib, ulardan 867 tasi yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarini hisoblanadi.



Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari, birlikda
(2023 yilning 1 yanvar holatiga)



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'ida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida (203 ta), Zomin (113 ta) va G'allaorol (101 ta), tumanida joylashgan.

Shuningdek, Sharof Rashidov tumanida (80 ta), Zarbdor (78 ta), Forish (54 ta), Do'stlik (33 ta), Paxtakor (48 ta), Baxmal (48 ta), Arnasoy (22 ta), Mirzacho'l (32 ta) Zafarobod (36 ta) va Yangiobod (19 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.